



ISSN: 2181-9416

2-SON, 2026

# YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА \* LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
**eLIBRARY.RU**

# YURIST AXBOROTNOMASI

2-SON

# ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 2

# LAWYER HERALD

ISSUE 2



**ABDIHAKIMOV Samandar Salohiddin o'g'li**  
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: [samandarabdihakimov86@gmail.com](mailto:samandarabdihakimov86@gmail.com)

## AYRIM FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISH ISHTIROKCHILARINI ISHGA JALB QILISH YOXUD SUD MUHOKAMASIDA ISHTIROKINI TA'MINLASH BILAN BOG'LIQ PROTSESSUAL BUZILISHLARNING HUQUQIY OQIBATLARI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**  
**ABDIHAKIMOV S.S.** Ayrim fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini ishga jalb qilish yoxud sud muhokamasida ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq protsessual buzilishlarning huquqiy oqibatlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2026) B. 97-106.

 2 (2026) DOI <http://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/2-010>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining turlari sifatida ishda ishtirok etuvchi shaxslar hamda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar tahlil qilinib, ulardan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ishga jalb qilish yoki ularni sud muhokamasida ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq protsessual buzilishlar yuz berishi natijasida sud hal qiluv qarorlariga ta'sir etish doirasi hamda darajasi yoritib berilgan. Muallif tomonidan fuqarolik protsessual qonunchiligida yuqorida keltirilib o'tilgan protsessual xatoliklar hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o'zgartirish uchun jiddiy asos sifatida qaralishi keltirilgan. Xususan, ish sud tomonidan sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinmagan shaxslarga aynan ishda ishtirok etuvchi shaxslar kirishi, shuningdek bundan boshqa shaxslar (odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar) ushbu asosni keltirib chiqarmasligi milliy va xorijiy huquqshunos olimlarning nazariy fikrlari hamda milliy, hamdo'stlik va xorijiy mamlakatlarning fuqarolik protsessual qonun hujjatlarini tahlil qilish asosida muallif tomonidan ilgari surilgan. Shuningdek, sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi masalani hal qilishi oqibatida hal qiluv qarorining bekor qilinishini tahlil qilish davomida ushbu shaxslarga o'zining subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslarni (taraf, uchinchi shaxslar va boshqa manfaatdor shaxslar) kiritish lozim ekanligi bildirilgan. Yuqoridagi tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 372<sup>4</sup>-moddasining tegishli bandlariga o'zgartirishlar kiritish, jumladan ushbu modda ikkinchi qismi ikkinchi bandida shaxslar doirasini aniqlashtirish va amaliyotdagi tushunmovchiliklarga barham berish maqsadida "shaxslar" tushunchasini "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" tushunchasi bilan almashtirilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslantirilgan hamda umumiy nazariy xulosalar taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** ishda ishtirok etuvchi shaxslar, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, birinchi instansiya, kassatsiya, taftish, hal qiluv qarori, moddiy huquq, protsessual huquq, subyektiv huquq, faktik xato.

**АБДИХАКИМОВ Самандар**Докторант Ташкентского государственного  
юридического университетаE-mail: [samandarabdihakimov86@gmail.com](mailto:samandarabdihakimov86@gmail.com)

## ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ НАРУШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПРИВЛЕЧЕНИЕМ К РАБОТЕ ИЛИ ОБЕСПЕЧЕНИЕМ УЧАСТИЯ В СУДЕБНОМ ПРОТЕСТЕ ОТДЕЛЬНЫХ УЧАСТНИКОВ ГРАЖДАНСКОГО СУДЕБНОГО ПРОИЗВОДСТВА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы лица, участвующие в деле, и лица, содействующие осуществлению правосудия, как виды участников гражданского судопроизводства, освещены сфера и степень влияния на судебные решения в результате возникновения процессуальных нарушений, связанных с привлечением к участию в деле лиц, участвующих в деле, или обеспечением их участия в судебном разбирательстве. Автором приводится, что в гражданском процессуальном законодательстве вышеуказанные процессуальные ошибки рассматриваются как серьезное основание для отмены или изменения решения. В частности, на основе теоретических взглядов отечественных и зарубежных ученых-правоведов, а также анализа национального, содружества и зарубежного гражданского процессуального законодательства автором выдвинуто, что к лицам, имеющим право участвовать в судебном разбирательстве, но не извещенным судом о времени и месте судебного заседания, относятся именно лица, участвующие в деле, а также другие лица (лица, содействующие осуществлению правосудия), не влекут за собой данное основание. Также в ходе анализа отмены решения вследствие решения судом вопроса о правах и обязанностях лиц, не привлеченных к участию в деле, указано, что к этим лицам следует отнести лиц, защищающих их субъективные права и интересы (стороны, третьи лица и другие заинтересованные лица). В результате вышеуказанного анализа обоснована целесообразность внесения изменений в соответствующие пункты статьи 372<sup>4</sup> Гражданского процессуального кодекса Республики Узбекистан, в частности, в целях уточнения круга лиц во втором пункте второй части данной статьи и устранения недоразумений на практике, замены понятия «лица» на понятие «лица, участвующие в деле», а также представлены общие теоретические выводы.

**Ключевые слова:** лица, участвующие в деле, лица, содействующие осуществлению правосудия, первая инстанция, кассация, ревизия, решение, материальное право, процессуальное право, субъективное право, фактическая ошибка.

**SAMANDAR Abdikhakimov**

PhD student at Tashkent State University of Law

E-mail: [samandarabdihakimov86@gmail.com](mailto:samandarabdihakimov86@gmail.com)

## LEGAL CONSEQUENCES OF PROCEDURAL VIOLATIONS RELATED TO THE INVOLVEMENT IN THE CASE OR ENSURING THE PARTICIPATION IN THE COURT PROCEEDINGS OF SOME PARTICIPANTS IN CIVIL PROCEEDINGS

### ANNOTATION

This article analyzes the types of participants in civil proceedings as persons participating in the case and persons assisting in the administration of justice, and highlights the scope and degree of influence on

court decisions as a result of procedural violations related to the involvement of persons participating in the case or ensuring their participation in the trial. The author states that the above-mentioned procedural errors in civil procedural legislation are considered as a serious basis for the cancellation or amendment of a decision. In particular, based on the theoretical views of domestic and foreign legal scholars and the analysis of civil procedural legislation of domestic, Commonwealth and foreign countries, the author proposes that persons participating in the case, who have the right to participate in the trial by the court, but are not notified of the time and place of the court session, as well as other persons (persons assisting in the administration of justice) do not create this basis. Also, during the analysis of the cancellation of the decision as a result of the court's decision on the rights and obligations of persons not involved in the case, it was stated that it is necessary to include persons (parties, third parties, and other interested parties) who protect their subjective rights and interests in these persons. As a result of the above analysis, the expediency of amending the relevant clauses of Article 372<sup>4</sup> of the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, including in the second clause of the second part of this article, in order to clarify the circle of persons and eliminate misunderstandings in practice, the replacement of the concept of "persons" with the concept of "persons participating in the case" is justified, and general theoretical conclusions are presented.


**Keywords:** persons participating in the case, persons assisting in the administration of justice, first instance, cassation, audit, decision, substantive law, procedural law, subjective law, factual error.

Respublikamizda sud-huquq tizimini takomillashtirishda odil sudlovni amalga oshirish Yangi O'zbekistonni qurishdagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida mamlaktimizni rivojlantirish bilan bog'liq asosiy maqsad hamda yo'nalishlar belgilangan bo'lib, ulardan biri aynan qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish bilan bog'liq hisoblanadi. Jumladan, sud tizimini boshqarishda sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini to'liq ravishda joriy qilish, sudyalarning hamjamiyati organlari tizimini to'laqonli shakllantirish va jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeks bo'yicha 0,64 ballni to'plashga erishish vazifalari belgilangan [1]. Mazkur maqsad va vazifalarni amaliyotga joriy qilish va odil sudlov darajasini oshirishda esa, albatta, sud tizimi institutlarini tadqiq qilish va ularda yuzaga kelib chiqadigan kamchiliklar va muammolarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr sanasidagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarini ta'kidlab o'tib, ulardan oltinchi yo'nalish sifatida zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohatlarni amalga oshirish lozim ekanligi belgilab berdi [2]. Ayniqsa, bugungi kunda fuqarolik sud ishlarini yuritishda odil sudlovga erishish fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining buzilgan yoki nizolashayotgan huquq va manfaatlarini tiklashda muhim o'rin tutadi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud hujjatlarini qayta ko'rish bosqichlari alohida ahamiyatga ega protsessual institutlardan biri hisoblanadi. Chunki, har bir subyekt birinchi instansiya tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat keltirish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati kassatsiya instansiyasi tomonidan jami 3665 ta ish ko'rib chiqilib, bundan 3015 tasi (82,3 foizi) bo'yicha sud qarorlari o'zgarishsiz qoldirilgan, 486 tasi (13,3 foizi) bo'yicha sud qarorlari bekor qilingan, 164 tasi (4,5 foizi) bo'yicha o'zgartirilgan [3]. 2024-yil hamda 2025-yil birinchi yarmida Oliy sudga shikoyatlar soni keskin kamayishiga qaramasdan, sud qarorlarini bekor qilish va o'zgartirish bilan bog'liq holatlar foiz darajasi oshganini ko'rish mumkin. Ya'ni, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi

Oliy sudi Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati taftish instansiyasi tomonidan jami 227 ta ish ko'rilgan bo'lib, ulardan 115 ta (50,7 foizi) sud hujjatlari o'zgarishsiz, 26 ta (11,4 foizi) o'zgartirilgan, 86 tasi esa (37,9 foizi) bekor qilingan [4]. 2025-yil birinchi yarmida jami 195 ta ish ko'rilgan bo'lib, ulardan 55 tasi (32 foizi) bo'yicha sud qarorlari o'zgarishsiz qoldirilgan, 90 tasi (53 foizi) bo'yicha sud qarorlari bekor qilingan, 23 tasi (13 foizi) bo'yicha sud qarorlari o'zgartirilgan [5]. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda bekor qilingan va o'zgartirilgan sud qarorlarning jami foizlari 2023-yilda 17,8 foizni, 2024-yilda 49,3 foizni, 2025-yil birinchi yarmida esa 85 foizni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval



Ko'rishimiz mumkinki, yildan yilga sud qarorlarini bekor qilish va o'zgartirish bilan bog'liq holatlar darajasi ko'tarilib borgan. Bu esa, sud qarorlarining barqarorligi hamda samaradorligini pasayishiga olib keladi. Shu bois, ushbu holatlarni kamaytirish uchun sud qarorlarini qayta ko'rishga olib keluvchi asoslarni o'rganib, ulardagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqida sud qarorlarini bekor qilish asoslari bir nechta turlarga ajratilgan. Ya'ni ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- faktik asoslar bilan bog'liq xatoliklar;
- moddiy huquq normalarini qo'llash bilan bog'liq xatoliklar;
- protsessual huquq normalarini qo'llash bilan bog'liq xatoliklar [6, B.91].

Ushbu guruhlardan protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi asoslariga alohida to'xtalish lozim. Chunki, ushbu sud xatolarini oldini olish va ularni bartaraf qilish nafaqat hal qiluv qarorlarini qabul qilishdagi kamchiliklarning kamayishiga, balki protsessual huquq normalarining obro'sizlanishini oldi olinishiga katta yordam beradi.

Protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi turlicha asoslar va sabablarga ega hisoblanadi. Ushbu asoslardan ayrimlari yuzaga kelishida sud ishtirokchilarining sudga jalb qilinmasligi yoki jalb qilinishiga qaramasdan sud muhokamasi to'g'risida xabardor qilinmasligi oqibatida ko'rib chiqilgan ishlar bilan bog'liq. Shu bois, fuqarolik sud ishlarini yuritish

ishtirokchilarini tahlil qilish orqali aynan qaysi subyektlarning ishtirok etmaganligi yoki xabardor qilinmaganligi jiddiy protsessual xatoliklarning yuz berishida muhim ahamiyat kasb etishini aniqlash mumkin.

FPK 372<sup>4</sup>-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi va to'rtinchi bandlariga ko'ra quyidagilar hal qiluv qarorlari bekor qilish uchun asos bo'lishi mumkin:

- ish sud tomonidan sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinmagan shaxslardan biror-biri yo'qligida ko'rilganligi;
- sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi masalani hal qilganligi [7].

Mazkur asoslarda keltirilgan subyektlarga aynan qaysi shaxslar kirishi mumkinligi haqida savol paydo bo'ladi. Ushbu savolga yechim topish uchun esa, birinchi navbatda fuqarolik sud yuritish ishtirokchilari doirasini tahlil qilish lozim bo'ladi.

FPK oltinchi bobi fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda ularning turlari, huquqlari va majburiyatlari belgilangan. Mazkur bobni tahlil qilish natijasida fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini quyidagi ikkita guruhga ajratish mumkin:

- ishda ishtirok etuvchi shaxslar (FPK 39-moddasi);
- odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar (FPK 54-moddasi).

Ba'zi hollarda fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari va ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchalari bir xil deb baholanadigan holatlar uchraydi. Ammo, ushbu ikkita tushuncha turlicha ma'nolarga ega. Huquqshunos olim M.A.Vikut ta'kidlashicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida sudda ko'rilayotgan ishning yakunidan manfaatdor bo'lgan shaxslar e'tirof etiladi. Shuningdek, uning fikricha ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi bilan bir xil emas, chunki fuqarolik protsessi ishtirokchisi sifatida ishda ishtirok etuvchi shaxslar bo'lmagan boshqa shaxslar ham ishtirok etishi mumkin (guvoh, ekspert, mutaxassis va boshqalar) [8, B.100, 101]. Mazkur huquqshunos olimning fikrlariga qo'shilish mumkin. Chunki, fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasiga nisbatan keng talqin qilinadi.

Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar ishda ishtirok etish huquqiga ega shaxslar hisoblanadi. Huquqshunos olim Sh.Sh.Shorahmetov odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarni ishda ishtirok etuvchi shaxslardan farqlab, ularning sudda ishtirok etishi o'zlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun emas, balki manfaatdor shaxslarning talablariga ko'ra yoki sud va protsessning boshqa ishtirokchilari tomonidan jalb qilinishi yuzasidan amalga oshirilishini ta'kidlab o'tadi [9, B.84]. Shuningdek, bir qator protsessualist olimlar E.E.Egamberdiyev [10, B.28, 29], Z.N.Esanova [11, B.91, 92], D.Y.Xabibullayev [12, B.101, 102] va M.M.Mamasiddiqovlar [13, B.92, 93] ham odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarni ish natijasidan manfaatdor emasligini, ularning asosiy suddagi ishtiroki esa sud ishlarini to'g'ri va aniq yuritilishiga yordam berishini ta'kidlashadi. Ushbu olimlarning fikrlariga to'liq qo'shilish mumkin. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar ishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar bo'lishiga qaramasdan, ularning ishtiroki bilan bog'liq protsessual buzilishlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan FPK 372<sup>4</sup>-moddasi ikkinchi qismida mavjud asoslarni keltirib chiqarmaydi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar to'g'risida turli huquqshunos olimlar tomonidan turlicha fikr-mulohazalar yuritiladi. Huquqshunos olim Sh.Sh.Shorahmetovning fikricha, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishning natijasiga nisbatan manfaatdorlik yuzasidan quyidagi ikkita guruhga ajratish mumkin:

- o'zining subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar;
- protsessda boshqa shaxslarning subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar [14, B.49, 50].

Bunda shunga e'tibor qaratish lozimki, huquqshunos olim ishda ishtirok etuvchi shaxslarni tahlil qilishda sud ishlarini natijasiga e'tibor qaratgan. Ish natijasiga bo'lgan yuridik manfaat mazmunan turlicha bo'lishi mumkin. Protsessualist olim N.A.Gromoshinaning fikricha, ish natijasidan manfaatdorlik moddiy-huquqiy va protsessual huquqiy manfaatlarga bo'linadi. Shuningdek, ularni shaxsiy va xizmat (mansab) manfaatiga egalik bilan ham tasniflaydi. Bulardan kelib chiqqan holda esa, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ikki guruhga ajratib ko'rsatadi. Birinchi guruh sifatida shaxsiy, moddiy va protsessual manfaatiga ega subyektlar hisoblanadi. Bularga esa taraflar, uchinchi shaxslar alohida ish yurituvchi bo'yicha arizachilar va manfaatdor shaxslar, shuningdek ma'muriy sud ish yurituvchidagi shaxslar kiradi. Ikkinchi guruh sifatida esa ishga nisbatan xizmat (mansab) va protsessual-huquqiy manfaatga ega bo'lgan subyektlar sifatida prokuror va boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qiluvchi shaxslar kiritilgan [15, B.115, 116]. Mazkur huquqshunos olimning fikrlariga qisman qo'shilish mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaatdorligi yuzasidan shaxsiy manfaatga egalik to'g'ri tasniflangan. Ammo, ikkinchi turi, ya'ni xizmat (mansab) manfaatiga egalikni ko'proq boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar deya tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, ikkinchi turga kiruvchi, ya'ni bilvosita manfaatdor shaxslar doim ham xizmat yoki mansab jihatidan majburiyati orqali ishda qatnashmaydi. Misol uchun vakillikni oladigan bo'lsak, ularga kiruvchi barcha subyektlarni xizmat yoki mansab yuzasidan ishda ishtirok etadi deb aytib bo'lmaydi. Shu sababli, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ikkinchi turini boshqa shaxslarning subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar deya tasniflash to'g'riroq va to'liqroq bo'ladi.

Shaxsiy va moddiy-huquqiy manfaat deganda ushbu toifadagi ishda ishtirok etuvchi subyektlar ishning ko'rilishi natijasida ma'lum huquq va manfaatlarida o'zgarishlar yuz berishi bilan yakunlashini anglatadi. Misol uchun, fuqarolik sud ishlaridan mol-mulk huquqi bilan bog'liq nizolarda ishning ko'rilishi natijasida da'vogar yoki javobgarning mol-mulkida o'zgarishlar yuz beradi. Shuningdek, ushbu vaziyatda nizoli mol-mulkka nisbatan ma'lum huquq va manfaatlarga ega bo'lgan uchinchi shaxslarning ham huquqlariga ta'sir etadi. Ikkinchi guruhga kiruvchi subyektlar esa yuqoridagi vaziyatga nisbatan ularning nizoli mol-mulkka nisbatan manfaatdorlik holati mavjud emas. Ammo, ishning yakuni bo'yicha manfaatdor bo'lganligi bois ishda ishtirok etuvchi shaxslar sirasiga kiritilgan. Ya'ni, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ular tomonidan himoya qilinayotgan huquq bo'yicha ijobiy natijaga erishish protsessual jihatdan ular uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, ushbu subyektlarning ishga jalb qilish yoki sud muhokamasida ishtirok etishi bilan bog'liq protsessual huquq normalarining buzilishi natijasida birinchi instansiya sudlari tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorlari bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Bu esa yuqorida keltirib o'tilgan FPK 372<sup>4</sup>-moddasi ikkinchi qismida sanab o'tilgan protsessual huquq normalarining jiddiy buzilishi asoslarini yuzaga keltiradi.

Sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinmagan shaxslardan biror-biri yo'qligida ko'rilganlik holatiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu asosni vujudga kelishidagi muhim subyektlar ishda ishtirok etuvchi shaxslarning bo'lishiga asosiy sabab, ularning ish yakunidan manfaatdorligi mavjudligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ishda ishtirok etuvchi shaxslar FPK 383- va 403-moddalariga asosan birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorlari ustidan belgilangan muddatlarda apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyalariga shikoyat bilan murojaat qilish huquqlariga ega. Chunki, ushbu subyektlarning huquq va manfaatlariga ta'sir qiluvchi hal qiluv qarori qabul qilinganligi ularni ustidan shikoyat taqdim etilishiga sabab bo'ladi.

FPK 372<sup>4</sup>-modda ikkinchi qismi ikkinchi bandida ko'rsatilgan asosni qo'llab har qanday holda hal qiluv qarori bekor qilinishi uchun, birinchi navbatda ishda ishtirok etuvchi shaxslardan taraflar, uchinchi shaxslar va alohida tartibda yuritiladigan ishlar doirasidagi manfaatdor shaxslarning sud

muhokamasi joyi va vaqti haqida xabardor qilinmasdan ko'rib chiqilganlik holatini tahlil qilish lozim. Bilamizki, sud ishlarini yuritishda eng muhim subyektlar bu taraflar hisoblanadi. FPK 43-moddasiga ko'ra taraflar da'vogar (arizachi) va javobgardan iborat. Ushbu ikki subyektning ishda ishtiroki ta'minlanmasdan ishni ko'rish faktik jihatdan mumkin emas (faqatgina sirtidan ko'riladigan ishlar bundan mustasno). Ammo, FPK 44-moddasida ishda bir nechta da'vogar yoki javobgar qatnashishi mumkin ekanligi belgilangan. Demak, ayrim vaziyatlarda da'vogarlar yoki javobgarlardan birining sud majlisi vaqti va joyi bilan bog'liq ma'lumotlar yetkazilmasdan ko'rib chiqish ehtimoli mavjud. Bunda shunga e'tibor qaratish joizki, FPK 44-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkin. Ushbu vaziyatda esa ishda ishtirok etgan sherik qolganlari uchun butun protsessdagi harakatlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shu bois, ishonch bildirilgan subyektdan boshqa subyektlarning sud muhokamasiga jalb etilishi shart emas va ularning ishtirok etmaganligi hal qiluv qarorini bekor qilinishiga olib kelmaydi. Qolgan barcha hollarda taraflarning sud majlisi bilan bog'liq ma'lumotlardan xabarsizligi oqibatida ish ko'rilishi mumkin emas. Shuningdek, uchinchi shaxslarni sud muhokamasi to'g'risida xabardor qilish bilan bog'liq protsessual buzilishlar ham ushbu asosni keltirib chiqaradi. Demak, xabardor qilinmagan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yuqorida sanab o'tilgan turlarining ishtiroki ta'minlanmasdan ko'rib chiqilishi FPK 372<sup>4</sup>-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi bandi orqali hal qiluv qarorini bekor qilinishida muhim rol o'ynaydi. Ya'ni, ushbu vaziyatda qabul qilingan hal qiluv qarorlari bekor qilish ehtimollik darajasi juda yuqori hisoblanadi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan protsessual institutlardan biri sanaladi. Vakillar shunday ahamiyatga egaki, ayrim hollarda ular ishdan manfaatdor shaxslarni huquqlarini himoya qilsa, ayrim hollarda ushbu huquqlardan to'liq foydalanishiga to'g'ri keladi. Shu bois, vakillikni alohida sudda ishtiroki qanchalik majburiy xarakterga ega ekanligini tahlil qilish lozim. Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, vakillikning ham ikkita turi mavjud bo'lib, ular qonuniy vakillik va shartnomaviy (ixtiyoriy) vakillik hisoblanadi. Agar sud muhokamasiga qonuniy vakillarni jalb qilmasdan ko'rib chiqiladigan bo'lsa, ushbu hal qiluv qarori har qanday holda bekor qilinishi lozim bo'ladi. Chunki, qonuniy vakillik FPK 66-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori to'rtinchi bandiga muvofiq, muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga daxldor fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda qo'llanilishi majburiydir [16]. Shu bois, ularning ishtirok etmaganligi hal qiluv qaroriga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Chunki, qonuniy vakillar o'zining qaramog'i ostidagi shaxsning roziligi bilan yoki ayrim hollarda rozilgisiz ham ularning huquqlaridan to'liq yoki cheklangan tarzda foydalanish imkoniyatiga ega.

Boshqa ishda ishtirok etuvchi shaxslar, jumladan ixtiyoriy (shartnomaviy) vakillar, prokuror, boshqa shaxslarning nomidan sudga murojaat qiluvchi davlat organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolarning sud muhokamasi joyi va vaqti haqida ogohlantirilmasdan, ularning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi hal qiluv qaroriga qanday darajada ta'sir o'tkazishi mumkin degan savol tug'iladi. To'g'ri, ayrim hollarda ularning ishtirokisiz ko'rilganda taraflar yoki manfaatdor shaxslarning huquqlarini belgilashga ta'sir o'tkazmasligi mumkin. Ammo, jamiyat yoki davlat manfaatlarini belgilashda va ularni himoya qilishda muhim hisoblanadi. Misol uchun prokurorni oladigan bo'lsak, ishda ishtirok etishi shart bo'lgan hollarda uning ishga jalb qilinmasligi jiddiy protsessual xatolik hisoblanadi. Chunki, ayrim protsessualist olimlarning fikricha, prokuror nafaqat ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, balki jamiyat (davlat) manfaatlarini himoya qilishni ham ko'zda tutadi [17, B.150].

Endi esa sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi ishni hal qilishi oqibatida hal qiluv qarorini bekor qilishga to'xtalish lozim. Birinchi navbatda mazkur shaxslar doirasini aniqlash zarur. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, ushbu asosni vujudga kelishida faqatgina subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslarni kiritish mumkin. Chunki, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari ish doirasida hal qilinmaydi. Ushbu protsessual huquq normasining buzilishida eng ko'p uchrashi mumkin bo'lgan holat sifatida uchinchi shaxslarning ishga jalb qilinmasligi oqibatlarini ko'rishimiz mumkin. Huquqshunos olim D.A.Guziy fuqarolik sud ishlarini yuritishda qabul qilingan sud hujjatlari uchinchi shaxslarga bevosita (sud hujjati qonuniy kuchga kirishi natijasida tomonlar o'rtasidagi nizoni hal qilish yakunlari bo'yicha) yoki bilvosita (kelgusida) ta'sir qilishini ta'kidlab, uchinchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlari sud qarori bilan huquqiy jihatdan bog'liqligi har doim ham aniq namoyon bo'lmasligini keltiradi [18, B.22] Ya'ni, uchinchi shaxslarning huquqlari yoki majburiyatlari sud ishini ko'rish davomida emas, balki keyinchalik aniqlanib qolinishi mumkin. Bu jarayonda sud tomonidan ularni ishga jalb qilish lozim bo'ladi. Ammo, ayrim hollarda ularni ishga jalb qilmasdan ishni ko'rib chiqishi oqibatida uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlari buzilishiga olib keladigan sud qarori qabul qilinishi mumkin.

Mazkur asoslar mavjud bo'lganida yuqori instansiyalar tomonidan ishni ko'rish birinchi instansiya tartibida ko'rishga o'tiladi. Ishga jalb qilinmasdan kimningdir huquq va majburiyatlarini hal qilish ishning mazmuniga katta ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ishni boshidan birinchi instansiya qoidalari bilan ko'rish orqali sudga jalb qilinmagan manfaatdor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mumkin. Bu qoida FPK 399-,419-,419<sup>28</sup>-moddalarida aniq belgilab qo'yilgan. Ish birinchi instansiya sudi qoidalari asosida ko'rilishi ishga jalb qilinmagan manfaatdor shaxslarning ish bo'yicha o'z vajlarini bayon qilishiga hamda sudlar tomonidan yangi dalillarga ega bo'lib, ularni tegishli tartibda baholash va ishni ushbu o'zgarishlar natijasida hal qilish imkoniyatini beradi.

Xorijiy mamlakatlarning fuqarolik protsessual qonunchiliklarida ham sud ishtirokchilari bilan bog'liq ayrim protsessual huquq normalarining buzilishi oqibatlari qonun normalarida belgilab o'tilgan. Xususan, Germaniya FPK 547-moddasida sud qarorlarini bekor qilish uchun sabab bo'luvchi mutloq asoslar sanab o'tilgan. Ushbu moddaning birinchi qismi to'rtinchi bandiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biriga vakillik qilinmaganligi oqibatida sud qarori yuqori instansiya sudi tomonidan bekor qilinishi nazarda tutilgan [19]. Bunda aynan "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" tushunchasi qo'llanilgan. Ya'ni, sud hujjatlarini bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asos bo'luvchi normada protsess ishtirokchilaridan aynan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaati buzilishi ko'rsatilgan. Bu esa shuni anglatadiki, ko'p hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaatlari buzilishi jiddiy protsessual xatolik sifatida qaraladi. Chunki, yuqorida keltirilgan modda jiddiy qonun buzilishi asoslarini tavsiflaydi.

MDH mamlakatlarning fuqarolik protsessual qonunchilik normalari tahlil qilish ham muhim ahamiyaga ega. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi FPK 330-moddasi to'rtinchi qism ikkinchi bandi [20] hamda Qozog'iston Respublikasi FPK 427-moddasi to'rtinchi qismi ikkinchi bandida sud muhokamasi joyi va vaqti haqida tegishli tartibda xabardor qilinmagan shaxslarga nisbatan "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" tushunchasi [21], Belarusiya Respublikasi FPK 424-moddasi to'rtinchi qism ikkinchi bandida esa "ish natijasidan yuridik manfaatdor shaxslar" tushunchasi qo'llanilgan [22].

Milliy protsessual qonunchiliklarni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (keyingi o'rinlarda - IPK) 279-moddasi beshinchi qism ikkinchi bandida aynan "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" atamasi qo'llanilgan [23]. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy

sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks (keyingi o'rinlarda - MSiyTK) 220-moddasi beshinchi qism ikkinchi bandida ham "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" deya belgilangan [24]. Demak, ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, boshqa protsessual qonunchiliklarda sud ishtirokchilarining sud majlisi to'g'risidagi xabardorligi va ularning ishtiroki bilan bog'liq protsessual qoidalarning buzilishi asosi amaliyotda qo'llash va talqin qilish uchun tushunarli qilib belgilangan. Ya'ni, ushbu qonunchiliklarda terminlar aniq va tizimli etib keltirilgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi FPK 372<sup>4</sup>-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi bandini quyidagicha yangi tahrirda o'zgartirish lozim:

*"Ish sud tomonidan sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinmagan **ishda ishtirok etuvchi shaxslardan** biror-biri yo'qligida ko'rilgan bo'lsa"*

*"Ishda ishtirok etuvchi shaxslar"* tushunchasining aniq qilib belgilanilishi orqali ushbu normani amaliyotda qo'llash jarayonidagi tushunmovchiliklarning oldi olinishiga erishish mumkin bo'ladi.

Umumiy qilib aytganda, fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ishga jalb qilish yoki ularni sud muhokamasi joyi va vaqti bilan bog'liq ma'lumotlardan xabardor qilish bilan bog'liq protsessual qoidalarga amal qilmaslik natijasida qabul qilingan sud hujjatlari yuqori instansiya sudlari tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishiga olib keladi. Chunki, fuqarolik protsessual huquqi subyektlaridan biri bo'lgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud muhokamasida ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ishtiroki ta'minlanmasligi oqibatida chiqarilgan sud hujjatlarida, ayniqsa hal qiluv qarorlarida tushunmovchiliklar va noaniqliklar yuzaga keladi hamda odil sudlovni to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. Shu bois, sudlar tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ishga jalb qilish bilan bog'liq protsessual qonunchiliklarga qat'iy rioya qilish muhim. Shuningdek, bu kabi protsessual xatoliklarni aniqlashda va bartaraf etishda protsessual huquq normalarini buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi asoslarini tahlil qilish, ularni aniqlashtirish orqali fuqarolik protsessual qonunchiligiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasi. 11.09.2023-yildagi PF-158-son // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr sanasidagi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi // URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Rayosatining "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan 2023-yilning to'rtinchi choragida kassatsiya tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud amaliyoti obzori" to'g'risidagi qarori. 23.01.2024-yildagi RS-03-24-son // URL: <https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Rayosatining "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan 2024-yilning to'rtinchi choragida taftish instansiyasida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud amaliyoti obzori" to'g'risidagi qarori. 24.01.2025-yildagi RS-02-25-son // URL: <https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Rayosatining "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan 2025-yilning ikkinchi choragida taftish instansiyasida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud amaliyoti obzori" to'g'risidagi qarori. 28.07.2025-yildagi RS-32-son // URL: <https://sud.uz/court-experiments/civil-court-experiments/>
6. Abdihakimov S.S. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud xatosi tushunchasi va uning nazariy tahlili // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 6 (2025) B. 85–94. 91-bet // URL: <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/issue/view/44>
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // 01.04.2018 // URL: <https://lex.uz/docs/-3517337#-6716209>

8. Вукот М.А. Комментарий к гражданскому процессуальному кодексу Российской Федерации (постатейный, научно-практический) / Под ред. -М., 2003. -С. 100-101.
9. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. - Toshkent: TDYI nashriyoti. 2010. - 960 bet.
10. Egamberdiyev E. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar. - Toshkent, Adolat. 2000. <https://library-tsul.uz/fu%D2%9Barolik-proccessual-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bij-munosabatlar-egamberdiyev-e-2000/>
11. Esanova Z.N. Fuqarolik protsessual huquqi. - Toshkent.: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. - 328 bet. <https://library-tsul.uz/fuqarolik-protsesual-huquqi-esanova-z-2022/>
12. Mamasiddiqov M.M., Xabibullayev D.Y., Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent. "Lesson press" nashriyoti. 2020-y. 607 bet //URL:<https://drive.google.com/file/d/1GJyv6KODBFziHGELOV8xbsD0ZxpTWzp/view>
13. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism/Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Mas'ul muharrir. y.f.d., prof. Oqyulov O. - Toshkent. TDYU nashriyoti. 2012. - 516 b. <https://library-tsul.uz/fu-arolik-protsessual-u-u-i-umumij-ism-mamasiddi-ov-m-2012/>
14. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. -Toshkent, Adolat. 2007. <https://library-tsul.uz/ozbekiston-respublikasining-fuqarolik-protsesual-huquqi-shoraxmetov-sh-2007/>
15. Крашенинникова П. В. Гражданское процессуальное право : учебник : [в 2 т.] / под ред. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Статут, 2022. 550 с. // URL: [https://www.consultant.ru/edu/student/download\\_books/book/grazhdanskoe\\_processualnoe\\_pраво\\_uchebnik\\_v\\_2\\_t\\_tom\\_1\\_obshchaya\\_chast\\_pod\\_red\\_pv\\_krashenninnikova/](https://www.consultant.ru/edu/student/download_books/book/grazhdanskoe_processualnoe_pраво_uchebnik_v_2_t_tom_1_obshchaya_chast_pod_red_pv_krashenninnikova/)
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori. 14.05.2010-yildagi 05-son // URL: <https://lex.uz/docs/-2414102>
17. Mamasiddiqov M.M., Yodgorov X.B., Davletov O'M. Fuqarolik protsessual huquqi. Maxsus qism. Darslik.– Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. –261 b
18. Гүзий Д. А. Третьи лица, не заявляющие самостоятельных требований относительно предмета спора, в гражданском судопроизводстве : автореф. дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.15 – гражданский процесс; арбитражный процесс. – М., 2021. // URL: [https://www.dissercat.com/content/treti-litsa-ne-zayavlyayushchie\\_samostoyatelnykh-trebovanii-otnositelno-predmeta-spora-v-gra](https://www.dissercat.com/content/treti-litsa-ne-zayavlyayushchie_samostoyatelnykh-trebovanii-otnositelno-predmeta-spora-v-gra)
19. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: <https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/14316>
20. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_39570/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39570/)
21. Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000377>
22. Belarusiya Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi // URL: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900238>
23. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi // 01.04.2018 // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3534013>
24. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks // 01.04.2018 // URL: <https://lex.uz/docs/-3527353>

**YURIST AXBOROTNOMASI**

2-SON

**ВЕСТНИК ЮРИСТА**

НОМЕР 2

**LAWYER HERALD**

ISSUE 2

**ISSN 2181-9416**

**DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/2**

**2026-YIL**